

O'zbekiston Respublikasi
Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
**“Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish,
davlat aktivlarini xususiylashtirish va boshqa
sohalarda 2025-yildagi faoliyati to'g'risida”**

HISOBOTI

MUNDARIJA

Kirish.	2
I. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish	
1.1 Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlashni tashkil etish.	4
1.2 Davlat ishtirokidagi korxonalarda tahlil va samaradorlikni baholash.	5
1.3 Davlat aktivlarining hisobini yuritish.	9
II. Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari	
2.1 Davlat aktivlarini xususiylashtirish.	11
2.2 Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasini yuritish.	17
III. Davlat aktivlari agentligining boshqa faoliyat yo'nalishlari	
3.1 Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish va ijaraga berishni tashkil etish.	19
3.2 Baholash va riyeltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish.	21
3.3 To'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini muvofiqlashtirish.	26
3.4 Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi masalalari.	28
3.5 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish.	34
3.6 Xalqaro hamkorlik masalalari.	37
3.7 Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish.	40
3.8 Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da'vo ishlarini yuritish jarayonlari.	41
3.9 Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar.	42
3.10 Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi.	43
IV. "E-auksion" elektron savdo platformasi faoliyati	44
Xulosa	49

KIRISH

“So‘nggi yillarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat mulkini xususiyashtirish orqali xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, samarasiz ishlayotgan va istiqbolsiz korxonalarni tugatish yuzasidan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.”

***Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.***

Davlat aktivlari agentligida 2025-yilda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlar tizimli ravishda safarbarlik ruhida tashkil etilgan bo‘lib, davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarish va xususiyashtirish hamda asosiy yo‘nalishlarda salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, 2025-yilda tegishli xususiyashtirish dasturlariga asosan, boshlang‘ich qiymati **41,0 trln so‘m**lik aktivlar hamda yer uchastkalari savdolarga chiqarilib, **29,8 trln so‘m**lik aktivlar va yer uchastkalari xususiyashtirilgan va xususiyashtirish jamg‘armasiga **11,0 trln so‘m tushum tushgan**.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun **7 513,1 gektar (35 337 ta)** qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari ijara va mulk huquqida **4 777 mlrd so‘m** narx bilan auksion savdolariga chiqarilib, shundan **3 806 gektar (23 422 ta)** yer uchastkalari **5 145 mlrd so‘mga (368 mlrd so‘m qimmatroq)** realizatsiya qilindi.

O‘tgan hisobot davrida davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarish, ularda zamonaviy korporativ usullarini keng joriy etish yuzasidan ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, davlat ishtirokidagi **34 ta** korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo‘yicha **74 nafar** a‘zolik o‘rinlariga **216 ta** arizalar kelib tushgan bo‘lib, ushbu nomzodlardan **31 nafar** nomzodlar tanlab olindi, **30 ta** korxonaga **43 nafar mustaqil a‘zolar** jalb qilindi.

Hisobot davrida **51 ta (2 ta Qonun hujjatlari, 7 ta Prezident hujjati, 32 ta Vazirlar Mahkamasi hujjati, 10 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat)** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi hamda **32 ta (1 ta Qonun, 2 ta Prezident hujjati, 20 ta Vazirlar Mahkamasi hujjati, 9 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat)** normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining **“Riyeltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi** hamda **“Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi** Qonunlari (yangi tahriri) xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqildi.

Osiyo taraqqiyot banki ko'magida jalb qilingan xalqaro ekspertlar bilan birgalikda **2026-2030-yillarda davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish strategiyasi** ishlab chiqildi.

Bu yil ilk marotaba "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonunga asosan **"Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risidagi yig'ma hisobot"** e'lon qilindi.

Davlat aktivlari agentligi tomonidan an'anaviy ko'rsatiladigan jami **18 ta** xizmat to'liq raqamlashtirilib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari (my.gov.uz) portalini va Davlat xizmatlari markazlarida xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga qulaylik yaratish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining "Sohalar" bo'limida alohida "Davlat aktivlari" sohasi ochildi va ko'rsatilayotgan barcha xizmat kiritildi.

Raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash (**nis.egov.uz**) natijalariga ko'ra, **Davlat aktivlari agentligi** davlat boshqaruvi organlari orasida **95,45 foiz** natija bilan **2-o'rinni** egalladi.

2025-yilda OAVlarda jami **688 ta** (**31 ta** TV va radio, **64 ta** gazeta va jurnallar hamda **593 ta** ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) chiqishlar tashkil qilindi.

Xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha jami **75 ta uchrashuv**, jumladan, **52 ta rasmiy uchrashuv**, tegishli loyihalar doirasida **23 ta ishchi tartibdagi uchrashuv** o'tkazildi, shuningdek **15 ta xalqaro seminar va forumlarda** ishtirok etildi.

Davlat rahbarining Amerika Qo'shma Shtatlariga tashriflari doirasida AQSH ishbilarmon soha vakillariga xususiylashtirilishi belgilangan aktivlar yuzasidan **"Road-show" o'tkazildi**.

Umuman olganda, Davlat aktivlari agentligining 2025-yildagi faoliyati iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish orqali tadbirkorlarga sharoit yaratish vazifalarni bajarishga qaratildi.

S.G'.Murodov

**Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi direktori**

I. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish

1.1 Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlashni tashkil etish

Davlat aktivlari agentligi davlat mulkini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi sifatida davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarishni tashkil etish va ularda zamonaviy korporativ usullarini joriy etishga qaratilgan quyidagi amaliy ishlar olib borilgan:

1. Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish Komissiyaning qarorlari bilan davlat ishtirokidagi **34 ta** korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun maxsus veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali tanlovlar o'tkazildi.

Mazkur tanlovlarda ishtirok etish uchun **74 nafar** a'zolik o'rinlariga jami **216 nafar** talabgorlardan arizalar kelib tushgan. Ushbu talabgorlardan davlat ulushi bo'yicha **31 nafari** tanlab olinib, korxonalarning boshqaruv organlarida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun ilgari surildi.

Davlat ishtirokidagi **30 ta** korxonaga **43 nafar mustaqil a'zolar** jalb qilindi.

*Ma'lumot uchun, "UzVC milliy venchur fondi" MCHJ va "O'zsanoatqurilishbank" ATB **3 nafari**dan, "O'zsuvta'minot" AJ, "O'zbekgeofizika" AJ, "O'zbek geologiya qidiruv" AJ **2 nafari**dan hamda "O'zmedlizing" AJ, "O'zbekiston nashriyoti matbaa uyi" MCHJ, "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ, "O'zbek invest" AJ, "O'zagrolizing" AJ, "O'zagrosug'urta" AJ, "Yo'lqurilish" AJ, "Uztreyd" AJ, "Yangi Angren IES" AJ, "Tashgiprogor" AJ, "Xorazm don mahsulotlari" AJ, "O'zog'irsanoatloyiha" AJ, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ, "Don xalq rizqi" AJ, "Jomboy don mahsulotlari" AJ, "Pop don mahsulotlari" AJ, "Samarqand don mahsulotlari" AJ, "Qo'qon don mahsulotlari" AJ, "Asakabank ATB" AJ **1 nafari**dan mustaqil a'zolar jalb qilindi.*

Davlat ishtirokidagi **23 ta** korxona kuzatuv kengashi tarkibiga **32 nafar ayol nomzodlar** kiritilishi ta'minlandi.

2. "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida" hamda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar talablaridan kelib chiqib, Davlat aktivlari agentligi ishtirokidagi davlat ulushi ustuvor **21 ta** korxonalar boshqaruv organlarining qarorlari bilan ijroiya organiga tanlov o'tkazilishi bo'yicha qarorlar qabul qilinib, ijroiya organidagi **22 ta** a'zolik o'rniga yangi rahbarlar tayinlandi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son hamda 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son qarorlari talablaridan kelib chiqib, **Osiyo taraqqiyot banki** hamda **Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki** ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan **Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari** hamda **Axloq kodeksi** hisobot davrida **20 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar boshqaruv organlarining qarorlari qabul qilinib, ularning faoliyatiga tatbiq qilindi.

4. 2025-yilda **76 ta** aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligi baholashdan o'tkazilgan bo'lib, baholash ko'rsatkichi **53 tasi**da **"yuqori"** va **23 tasi**da **"qoniqarli"** deb topilgan.

5. Davlat aktivlari agentligi tomonidan ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan **233 ta** xo'jalik jamiyatlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining tashkil etilishi holati o'rganib chiqildi va Hisob palatasiga ma'lumotlar taqdim etildi.

6. Davlat ishtirokidagi korxonalarning 2024-yil yakuni bo'yicha yillik umumiy yig'ilishlar va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarida ishtirok etish uchun davlat vakillariga **466 ta** ishonchnoma va **298 ta** ko'rsatmalar berildi.

7. Hukumatning tegishli qarorlariga (*Vazirlar Mahkamasining 800-, 350-, 139-son va boshqalar*) asosan davlat ishtirokidagi **1 463 ta** korxonalardan **1 170 ta** jumladan, 2025-yil yakuni bo'yicha **234 tasi** tugatilgan va qolgan **293 tasi** bo'yicha tugatish ishlari davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-fevraldagi O'RQ-1025-son Qonuniga asosan **580 ta** davlat unitar korxonalaridan **110 tasi** tugatildi, **143 tasi** qayta tashkil etildi, **327 tasi**da tugatish, qayta tashkil etish ishlari davom ettirilmoqda.

Tegishli xususiylashtirish dasturlariga asosan korxonalardagi **100 ta** aksiya paketlari (ulushlari) Davlat aktivlari agentligiga o'tkazilgan.

8. Hukumatning tegishli qarorlariga asosan bugungi kunda amalda **8 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar ishonchli boshqaruvga berilgan bo'lib, shundan **3 tasi** 2025-yilda **ishonchli boshqaruvga** berildi (*"Dori-Darmon" AKdagi davlat ulushi "Legacy Management" MChJga, "Toshkent yo'lovchi vagonlarini qurish va ta'mirlash zavodi" AJdagi davlat ulushi "Transport Engineering Center" MChJ XKga hamda "O'zbekiston pochta" AJdagi davlat ulushi "WB INT EXPORT" MChJga*).

9 ta davlat ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalidagi davlat ulushlari **ishonchnoma asosida tegishli vazirlik va idoralarga boshqaruvga** berildi, shundan **4 tasi** 2025-yilda ishonchnoma rasmiylashtirildi (*"Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJdagi 100 foiz va "O'zbekekspertiza" AJdagi 81 foiz davlat ulushlari Savdo sanoat palatasiga, "Toshkent Traktor zavodi" MCHJdagi 100 foiz davlat ulushi "O'zavtosanoat" AJga va "Xabar gazetasi tahririyati" MCHJdagi 49 foiz davlat ulushi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markaziga*).

1.2. Davlat ishtirokidagi korxonalarda tahlil va samaradorlikni baholash

1. Davlat ishtirokidagi 1 586 ta (*tugatish jarayonida, faoliyatsiz, bankrot, hisobot topshirmaganlardan tashqari*) korxonalardan **582 tasi** 2025-yil **9 oylik yakuni bo'yicha** soliq organlariga va "Davlat mulki" saytiga hisobot taqdim etgan (*shu jumladan 22 ta yirik strategik korxona*). Shundan:

- **sof tushum 359,2 trln so'mni** (*o'sish 16,0 %*) tashkil etadi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **357 ta** korxonada ko'paygan va **159 ta** korxonada **kamaygan**;

- **tannarx 271,5 trln so'mni** tashkil etadi, o'rtacha **1,1%**ga kamaygan (*bunda 11 ta yirik korxonalarda tannarx oshgan*);

- **sof foyda 37,2 trln so'mni** tashkil etgan (*o'sish – 17,7%*), shundan **34,0 trln so'mi** (*91,4%*) yirik korxonalarga to'g'ri keladi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **238 ta** korxonada ko'paygan va **171 ta** korxonada **kamaygan**, shuningdek, **104 ta** korxona **3,3 trln so'm zarar** ko'rgan (*kamayish – 40,8%*);


- **budjetga** to'lovlar **52,9 trln so'm**ni tashkil etgan (*o'sish – 7,1%*), shundan **82,8%** (**43,8 trln so'm**) yirik korxonalarga to'g'ri keladi, to'lovlar **120 ta** korxonada kamaygan (*5 tasi yirik korxonalar*);

- **joriy kreditor qarzidorlik** **140,3 trln so'm**ni tashkil etadi va yil boshiga nisbatan **11,2%**ga ko'paygan, shundan **90,6 trln so'm** (*64,6 %*) yirik korxonalarga to'g'ri keladi **273 ta** korxonada ko'paygan (*16 tasi yirik korxonalar*);

- **debitor qarzidorlik** **149,4 trln so'm**ni tashkil etadi va yil boshiga nisbatan **5,7%**ga ko'paygan, shundan **103,4 trln so'm** (*69,2%*) yirik korxonalarga to'g'ri keladi, **251 ta** korxonada ko'paygan (*11 tasi yirik korxonalar*).

1-grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalarda ijro organi faoliyati samaradorligi muhim ko'rsatkichlari (KPI) ning 2024-yil 9 oylik yakuni bo'yicha joriy etish holati



* Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 674-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni *har chorak yakunlari bo'yicha hisobot davrining keyingi oyi davomida, yil yakunlari bo'yicha keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda Davlat aktivlari agentligining maxsus axborot tizimida joylashtirib boradi.*

278 ta davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan **jami 9,1 trln dollar** miqdorida **import qilingan** (*o'tgan yilga nisbatan o'sish – 5 %*).

Bunda, **import hajmining asosiy** qismi mashinasozlik va elektrotexnika – **27,5%**, bank va moliya tashkilotlari – **15,4%**, neft-gaz – **24,4%**, metallurgiya – **7,8%**, energetika – **4,5%**, yo'l-transport – **6,5%**, axborot texnologiyalari – **3,8 %** va boshqa sohalarga to'g'ri keladi.


210 ta davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan **26,1 mlrd dollarlik** tovarlar eksport qilingan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **6 barobarga** ko'paygan (*ishlar va xizmatlarsiz*).

2. Zarar ko'rgan va iqtisodiy tavakkalchilik holatidagi 95 ta davlat ishtirokidagi korxonalarni **2025-yilda** moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan **"yo'l xaritalari"** — dasturlari ishlab chiqildi.

95 ta korxonalarda "Yo'l xaritasi" ijrosi bo'yicha monitoringi olib borildi, shundan 2025-yil 9 oy yakunlariga ko'ra, **76 ta** korxonalar **7,3 trln so'm sof foyda** olgan bo'lsa, qolgan **19 ta** korxonalar **219 mlrd so'm zarar** bilan yakunlagan bo'lib, ushbu korxonalarda 2025-yil yakunlari bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kutilmoqda.

2-grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalarni 2025-yilda moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan "Yo'l xarita" dasturlari ijrosi bo'yicha monitoring ko'rsatkichlari



* Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 674-son qaroriga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak yakunlari bo'yicha hisobot davrining keyingi oyi davomida, yil yakunlari bo'yicha keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda Davlat aktivlari agentligining maxsus axborot tizimida joylashtirib boradi.

3. "Davlat mulki" avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan Majburiy ijro byurosi (xatlangan va taqiq qo'yilgan mol-mulk), Davlat soliq qo'mitasining (dividendlar), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (davlat ishtirokidagi korxonalarida investitsiya loyihalari), Milliy statistika qo'mitasi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi axborot tizimlariga **integratsiya qilindi**.

4. Davlat ishtirokidagi korxonalarning 2024-yil yakuni bo'yicha faoliyati natijadorligi va davlat mulkidan foydalanish holati to'g'risidagi Yig'ma hisoboti shakllantirilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi va Davlat aktivlari agentligining **veb-saytida e'lon qilindi**.

5. 2025-yilda **886 ta** davlat korxonalari hamda ustav kapitalida **50 foiz va undan ortiq** miqdorda **davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslarning** 2024-yil yakuni bo'yicha olingan **64,7 trln. so'm** sof foydasidan davlat ulushi bo'yicha jami **34,6 trln. so'm** (2024-yil faktga nisbatan **31,5 foizga ko'p**) dividend va ajratmalar to'lanishi rejalashtirilgan bo'lib, 2025-yil 31-dekabr holatiga **775 ta** korxonalar tomonidan **49,0 trln. so'm** dividend va ajratmalar davlat budjetiga to'langan, o'tgan yilning shu davriga (**26,3 trln. so'm**) nisbatan **86,4 foizga ko'p**.

To'langan dividendlarning **95,5** foizi **5 ta yirik korxona** hissasiga to'g'ri keladi ("Navoiy KMK" AJ – **36 010,0 mlrd. so'm**, "Olmaliq KMK" AJ – **7 575,0 mlrd. so'm**, "Navoiyuran" DK – **1 398,0 mlrd. so'm**, "O'zavtosanoat" AJ – **1 104,4 mlrd. so'm** va "O'zbekneftgaz" AJ – **679,1 mlrd. so'm**).

Davlat aktivlari agentligi aksiyador (ishtirokchi) bo'lgan **209 ta** korxonalardan **574,0 mlrd.so'm** davlat budjetiga dividend (ajratma)lar to'lanishi rejalashtirilgan bo'lib, 2025-yil 31-dekabr holatiga **225 ta** korxonalar tomonidan **591,6 mlrd.so'm (103,1 foiz)** dividend va ajratmalar davlat budjetiga to'langan.

To'langan dividendlarning **50,0 foizi (292,8 mlrd. so'm)** **5 ta korxona** hissasiga to'g'ri keladi ("O'zbekiston geologiya qidiruv» AJ – **80,1 mlrd.so'm**, "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJ – **64,1 mlrd. so'm** va "O'zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi" AJ – **54,4 mlrd. so'm** "Milliy banklararo protsessing markazi" AJ – **51,9 mlrd. so'm** "O'zsuvta'minot" AJ – **42,2 mlrd. so'm**).

3-grafik



1.3 Davlat aktivlarining hisobini yuritish holati

1. Davlat mulki va davlat ishtirokidagi korxonalar hisobini yuritish property.davaktiv.uz axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat ishtirokidagi korxonalar 2026-yil 1-yanvar holatiga **1 988 ta**ni tashkil etdi.

Davlat aktivlarining tashkiliy-huquqiy shakli (jami – **36 112 ta**):

- aksiyadorlik jamiyatlari – **251 ta** (25 foizgacha – **46 ta**, 25-50 foizgacha – **40 ta**, 51-99 foizgacha – **130 ta**, 100 foiz – **35 ta**);

- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – **1 422 ta** (25 foizgacha – **119 ta**, 25-50 foizgacha – **141 ta**, 51-99 foizgacha – **605 ta**, 100 foiz – **557 ta**);


- davlat unitar korxonalari – **315 ta**;

- davlat muassasalari – **34 124 tani tashkil etadi.**

2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan **34 463 ta** davlat tashkilotlarining **29 421 tasi** davlat mulkining joriy holati bo'yicha hisobotlarini "**property.davaktiv.uz**" ATga topshirdi.

4-grafik

Davlat aktivlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili



Izoh: Xususiylashtirish dasturlariga asosan davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan korxonalarni ommaviy savdolar orqali sotish uchun davlat tasarrufiga olinganligi sababli, 2024-yilda aksiyadorlik jamiyatlari soni ortgan.

"property.davaktiv.uz" ATga hisobotlarni kiritmagan yoki to'liq kiritmagan davlat tashkilotlariga yuborilgan **taqdimnomalar**, ularga qo'llanilgan **ma'muriy javobgarlik choralari** va **jarimalar bo'yicha pul tushumlarining** monitoringi "Davlat mulki" ATda **elektron ravishda yuritilishi ta'minlandi**.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qaroriga muvofiq davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar murojaatlariga asosan Davlat aktivlari agentligi tomonidan **2 306 ta** tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilishi uchun buyruqlar qabul qilingan. Jumladan, **1 170 ta** yangi tashkil etilgan davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar hamda **1 136 ta** ta'sis hujjatlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha buyruqlarni tashkil etadi.

4. Davlat aktivlari agentligi taqdimnomalari ijrosini ta'minlamagan **879 ta** davlat tashkilotlarining **mansabdor shaxslariga** nisbatan **ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanildi**.


5. Qonunchilik talablari asosida respublika bo'yicha jami **29 561 ta** davlat muassasalari tahlil qilingan bo'lib, shundan **206 tasini** xususiylashtirish, **981 tasini** tugatish va **28 374 tasini** saqlab qolish taklif etildi.

Tahlil natijalari bo'yicha qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-apreldagi 139-son qaroriga asosan, Respublika bo'yicha **90 tasi** tugatildi, **137 tasi** bo'yicha tugatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Respublika mulkidan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida davlat ko'chmas mulk obyektlari bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga o'tkazish bo'yicha Davlat aktivlari agentligining **106 ta qarori qabul qilindi**.

5-grafik

Davlat aktivlari agentligi tomonidan qabul qilingan qarorlar to'g'risida



6. "Davlat mulki" axborot tizimida bugungi kunda **16 ta** chet davlatlarda joylashgan jami **165 ta** davlat aktivlarining hisobi yuritilmoqda.

Davlat aktivlarining **156 tasi** bino-inshootlar, **8 tasi** ulushlar va **1 tasi** davlat muassasasining chet eldagi filiali hisoblanadi.

II. Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari

2.1 Davlat aktivlarini xususiylashtirish

1. Tegishli xususiylashtirish dasturlariga muvofiq **41,0 trillion soʻm**lik aktivlar va yer uchastkalari savdolarga chiqarilib, **29,8 trln soʻm**lik aktivlar va yer uchastkalari **xususiylashtirildi**.

Respublika boʻyicha qiymati **35,1 trln soʻm**lik **7 237 ta** (**22,2 trln soʻm**lik **2 061 ta** davlat aktivi va **12,9 trln soʻm**lik **5 176 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar aktivi), **aktivlar** ommaviy savdolarga chiqarildi, shundan **3 077 ta** aktivlar **21,1 trln soʻm**ga (**1 267 ta** davlat aktivi **9,3 trln soʻm**ga va **1 810 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar aktivi **11,8 trln soʻm**)ga sotildi.

Misol tariqasida yirik davlat aktivlaridan, “Samarqand avtomobil zavodi” MChJ QK (75,2%) – **80 mln AQSH dollar** (investitsiya kiritish sharti bilan), “Invest Group Centre” MChJ (100%) – **297,9 mlrd soʻm** “OʻzBAT A.O.” AJ QK (2,6%) – **269,7 mlrd soʻm**, “Avto climate control” MChJ (100%) – **230 mlrd soʻm**, “Avtooyuna” MChJ (100%) – **201 mlrd soʻm** “Uz truck and Bus Motors” MChJ QK (34,2%) – **200 mlrd soʻm**, Pop neftbaza bino va inshooti – **91,5 mlrd soʻm**ga sotildi.


Sotilgan aktivlarining **711 tasiga** boshlangʻich narxi **1,9 trln soʻm**ga nisbatan **narx pasaytirish mexanizmi** qoʻllanilgan holda **1,2 trln soʻm**ga sotilgan.

Xususiylashtirishdan tushum **11,0 trln soʻm**ni tashkil etdi.

6-grafik

Davlat aktivlarini xususiylashtirish va ulardan tushum

(trln soʻm)



2. Boshlang'ich qiymati **5,8 trln so'mlik 8 736 gektar (52 831 ta)** shundan 2025-yilda **4,8 trln so'mlik 7 513 gektar (35 337 ta)** qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari aukcion savdolariga chiqarilib, **3 856 gektari (23 423 tasi) 5,1 trln so'mga** sotildi.

Misol tariqasida Mirzo Ulug'bek tumanidan narxi **497,8 mlrd so'm** bo'lgan **25,52 gektar** yer uchastkasi ko'p qavatli turar-joy majmualarini qurish uchun ijara huquqi bilan **522,7 mlrd so'm**, Namangan viloyati, Chust tumani, Chust gulzori MFYda joylashgan boshlang'ich narxi **31,5 mln so'm** bo'lgan **0,04 gektar** yer uchastkasi 7 qavatli turar joy binosi qurish uchun ijara huquqi bilan **2,0 mlrd so'mga (63 barobar qimmatga)** sotilgan.


Sotilgan yer uchastkalarining **694 gektar (12 867 ta)** boshlang'ich narxi **416 mlrd so'mga** nisbatan **narx pasaytirish mexanizmi** qo'llanilgan holda **89 mlrd so'mga** sotilgan.

Aukcion savdolari orqali **bo'lib to'lash** asosida **2 510 gektar (15 170 ta)** yer uchastkalari **3,1 trln.so'mga** sotilgan.

Misol tariqasida Toshkent shahri, Mirobod tumanidan narxi **2,9 mlrd.so'm** bo'lgan **6 sotix** yer uchastkasi oshxona, kafelar, savdo uylari qurish uchun **ijara huquqi** bilan **15,1 mlrd.so'mga** sotilgan.

7-grafik

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari aukcion savdolariga chiqarish holati(trln so'm)




O'zbekkosmos agentligi bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari hamda Toshkent shaharida **613 gektar 7 237 ta** bo'sh yer uchastkalari aniqlanib, ularni savdoga chiqarish ishlari amalga oshirilmoqda.

3. Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijara huquqi asosida respublika bo'yicha o'rtacha **1 sotix** yer uchastkasi elektron onlayn-aukcion orqali **13,4 mln so'mga** realizatsiya qilingan.


Aukcion savdolari orqali viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida sotilgan o'rtacha 1 sotix qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini qiymati

(mln so'm)



4. Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan o'zlariga tegishli bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish natijasida **30 365 ta**, shundan 2025-yilda **8 427 ta** orderlar berilgan natijasida **378,4 mlrd so'm** shundan 2025-yilda **167,8 mlrd so'm** tushum tushgan.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish uchun berilgan orderlar to'g'risida



5. Xalqaro ahamiyatdagi yo'l bo'yi infratuzilmalarini tashkil etish uchun master-reja asosida boshlang'ich qiymati **101 mlrd so'mlik 250 gektar (381 ta)** yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarildi va boshlang'ich qiymati **47,8 mlrd so'm bo'lgan 110,5 gektar (193 ta)** yer uchastkalari **83,9 mlrd. so'mga** sotildi.

6. 2025-yil davomida **149 ta** jami **980 mlrd so'm** va **1 147 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritish hamda **10 315 ta** ish o'rni yaratish majburiyatlari bilan sotilgan davlat aktivlari bo'yicha monitoring olib borildi. Shundan **26 ta** davlat aktivi bo'yicha xaridorlarga yuklatilgan majburiyatlar qabul qilinishi hisobiga **316 mlrd so'm** va **15 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritildi hamda **660 dan ortiq** yangi ish o'rinlari yaratildi (*kambag'al toifadagi aholi – 59 ta, ayollar – 85 ta, yoshlar – 72 ta*).

Misol uchun, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, "Roguzar" MFY, Jayxun ko'chasida joylashgan bo'sh turgan bino-inshootlarga "Uzteks" MCHJ tomonidan 1,7 mln AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritilib, poyabzal ishlab chiqarish va avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish faoliyati tashkil etildi va 70 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi.

4 ta davlat aktivlari bo'yicha oldi-sotdi shartnomalari xaridorlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi sababli belgilangan tartibda **bekor qilindi**.

135 ta sotilgan davlat aktivlariga jami **756,4 mlrd so'm** va **1 137,4 mln AQSH dollari** miqdorida investitsiya kiritish, **9 109 ta** ish o'rni yaratish bo'yicha majburiyatlar monitoringi olib borilmoqda.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 21-apreldagi PQ – 145-son qarori** qabul qilindi va qarorga asosan **29 ta** yirik davlat aktivlari professional konsultantlarni jalb qilgan holda xalqaro va mahalliy bozorda ommaviy xususiylashtirish belgilangan.

Ushbu jarayonga **6 ta** xalqaro konsultantlar jalb etildi (*KPMG, Deloitte, Dentons, "Kellog Brown&Root", Rothschild, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Alvarez&Marsal*).

2 ta korxonalar bo'yicha savdo jarayonlari yakunlangan (*"Samarqand avtomobil zavodi" MChJ QKdagi 75,2 foiz davlat ulushi "Anadolu Group" tarkibidagi "Anadolu Isuzu" kompaniyasiga 80,0 mln. dollarga va 80,0 mln. dollar investitsiya kiritish hamda "Boysunko'mir" MChJdagi 100 foiz davlat ulushi "Stroy grand servise" MChJga 26 mlrd so'mga va 20,0 mln dollar investitsiya kiritish sharti bilan sotilgan*);

4 ta korxonalar bo'yicha savdo jarayonlari boshlangan (*"Universal Mobile Systems", "O'zagrosug'urta", "Sharq'unko'mir", "Sherobod sement zavodi"*);

12 ta korxonalar bo'yicha xalqaro konsultantlar tomonidan xususiylashtirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda (*"Uzbekistan GTL", "Navoiyazot" va 10 ta issiqlik elektr stansiyalar* (*To'raqo'rg'on IES, Yangi Angren IES, Angren IES, Sirdaryo IES, Muborak IES, Farg'ona IES, Toshkent IEM, Toshkent IES, Navoiy IES, Taxiatosh IES*);

8 ta korxonalar bo'yicha xalqaro konsultantlar tomonidan o'rganish ishlari olib borilmoqda (*"Texnopark", "O'zbekinvest EISK" "Transgazmaxsusqurilish", "Maxsusenergogaz", "Yo'lqurilish", "O'zsuvqurilish", "UzAvto Motors", "UzAvto Motors Paurtreyn"*).

8. 2025-yilning 18–19-aprel kunlari O‘zbekiston delegatsiyasi **Birlashgan Arab Amirliklariga tashrifi** davomida BAAda faoliyat yuritayotgan investorlar uchun O‘zbekistonda biznes yuritish imkoniyatlari to‘g‘risida **taqdimotlar qilindi**.


10–12-iyun kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan **IV Toshkent Xalqaro Investitsiya Forumi doirasida “Xususiylashtirish: rejalar, yondashuvlar va yutuqlar”** mavzusidagi panel sessiya tashkil etilib, xorij mehmonlariga xususiylashtirilishi belgilangan aktivlar bo‘yicha taqdimot qilindi.

Tadbirda Davlat aktivlari agentligi va “CEO Clubs Network Worldwide” o‘rtasida O‘zbekistonda xususiylashtirish jarayoniga **xorijiy investorlarni faol jalb qilishga qaratilgan anglashuv memorandum**i imzolandi.

15-25-sentabr kunlari Davlat rahbarining Amerika Qo‘shma Shtatlariga qilgan tashriflari doirasida **AQSH ishbilarmon soha vakillariga xususiylashtirilishi** belgilangan aktivlar yuzasidan **“Road-show” o‘tkazildi**.

2025-yildagi xususiylashtirish bo'yicha natijalar

Xususiylashtirish dinamikasi




2025-yilda:

Hajm **29,8** trln.so'm, tushum **11** trln.so'm

2025-yilda xususiylashtirilgan yirik davlat aktivlari

	"SamAuto" МЧЖ	1 000 mlrd
	"Деҳқонобод калий заводи" АЖ	798 mlrd
	"Қизилкум фосфорит комплекси" МЧЖ	
	"Invest group centr" МЧЖ	298 mlrd
	"УзБАТ" АЖ (2,6%)	269 mlrd
	"Avto climate control" МЧЖ	230 mlrd
	"Avtooyuna" МЧЖ	201 mlrd
	"Uz Track and Bus Motors" МЧЖ (34,2%)	200 mlrd
	"УзСемунг" МЧЖ (38,5%)	168 mlrd
	Поп нефтбаза бино ва иншоотлари	91 mlrd

Yer uchastkalarini xususiylashtirish



Toshkent sh. 2,1 trln so'm, Toshkent v. 1,8 trln so'm
Sotish qiymati boshlang'ich narxiga nisbatan 1,4 barobar ko'p

ZBEKOSMOS 8 ta hudud markazlarida 432 gektar bo'sh yerlar aniqlandi



2025 yilda 167 mlrd so'mlik 808 gektar yer uchastkalari 8,4 mingdan ortiq mulkdor tomonidan xususiylashtirildi



2.2. Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasini yuritish

Davlat aktivlarini xususiylashtirishdan 2025-yilda jami **tushumlar 11,0 trl so'mni** tashkil etgan hamda joriy yil boshiga qoldiq mablag'larni inobatga olib **xarajatlar 11,2 trln so'mni** tashkil etdi.

1. Daromadlar

Hisobot davrida davlat aktivlarini xususiylashtirishdan daromadlar **11 006,5 mlrd so'mni** (yillik prognozga nisbatan **83 foiz**) tashkil etdi (o'tgan yilga nisbatan **1 434,6 mlrd so'mga ko'p (115 foiz)**), jumladan:


- **2 187,8 mlrd so'm** davlat aksiya paketlari sotilishidan (o'tgan yilga nisbatan **2 257,1 mlrd so'mga kam (49,2 foiz)**);
- **3 416,1 mlrd so'm** davlat ulushlari sotilishidan (o'tgan yilga nisbatan **2 002,8 mlrd so'mga ko'p (242 foiz)**);
- **2 267,5 mlrd so'm** ko'chmas mulk obyektlari sotilishidan (o'tgan yilga nisbatan **436,1 mlrd so'mga ko'p (124 foiz)**);
- **2 785,7 mlrd so'm** qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini ijara va mulk huquqi asosida sotishdan (o'tgan yilga nisbatan **1 070,7 mlrd so'mga ko'p (162 foiz)**);
- **310,3 mlrd so'm** qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini sotishdan (o'tgan yilga nisbatan **169,1 mlrd so'mga ko'p (220 foiz)**);
- **39,1 mlrd so'm** boshqa tushumlarni tashkil etdi.

2. Xarajatlar

Hisobot davrida jami xarajatlar **11 233,2 mlrd so'mni** (yillik prognozga nisbatan **85 %**) tashkil etdi, jumladan:

- **6 680,3 mlrd. so'm** respublika budgetiga yo'naltirilgan (o'tgan yilga nisbatan **563,6 mlrd so'mga ko'p (109 foiz)**);
- **2 601,4 mlrd. so'm** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga, shuningdek, obyekt joylashgan tuman (shahar) budgetlariga yo'naltirilgan (o'tgan yilga nisbatan **1 701,7 mlrd so'mga ko'p (289 foiz)**);
- **70,0 mlrd so'm** Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga;
- **1 571,0 mlrd so'm** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlariga muvofiq maqsadli yo'naltirilgan mablag'lar;
- **87,2 mlrd so'm** aktivlarni baholash, berish, saqlash va sotish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni tashkil etdi.

Asosiy ko'rsatkichlarning 2025-yil yakuni bo'yicha 2024-yilga nisbatan o'sishi



III. Davlat aktivlari agentligining boshqa faoliyat yo'nalishlari


3.1 Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish va ijaraga berishni tashkil etish

Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi tomonidan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishni hamda hisobini yuritish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xatlov natijalariga ko'ra jami **1 017 ta** bo'sh turgan obyektlar xatlovdan o'tkazilib, **659 tasi 2025-yil uchun ishlab chiqilgan yangi xususiylashtirish dasturiga kiritilgan qolgan 412 tasidan** samarali foydalanish maqsadida **2026-yil uchun xususiylashtirish dasturiga kiritilgan**.

12-grafik

Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish tahlili




Davlat mulkini ijaraga berish.

Respublika bo'yicha ko'chmas mulkni ijaraga berish bo'yicha "online-ijara.uz" dasturi orqali jami **673,7 mlrd so'mlik 29 622 ta** ijara shartnomalar rasmiylashtirilgan va **618,3 mlrd so'mlik** ijara tushum ta'minlangan, shundan **174,1 mlrd so'm** mablag'lar budjetga yo'naltirilgan.

Bunda, umumiy maydoni **340,8 ming kv.m** bo'lgan **8 538 ta** obyektlar (bino qismlari) **156,7 mlrd so'mlik** boshlang'ich narxda **auksion savdolarga chiqarilgan**, shundan umumiy maydoni **182,6 mln kv.m 5 990 tasi 193,8 mlrd so'mlik** ijaraga berilgan.

Davlat mulkini ijaraga berish holati



Hokim yordamchilar tomonidan berilgan buyurtmanomalar bo'yicha:

Hokim yordamchilari tomonidan **elektron platformaga jami 5 736 ta buyurtmanomalar kelib tushgan** (**1 255 tasi** sotish, **1 565 tasi** ijaraga berish va **2 916 tasi** yer uchastkasi masalasida), shundan:


- **362 tasi** qabul qilinib, ularning **33 tasi** sotish (**24 tasi** sotilgan), **329 tasi** ijaraga berish uchun auksion savdolariga chiqarilgan (**112 tasi** ijaraga berilgan);

- **2 458 tasi** bo'yicha tegishli tushuntirish va asoslarni keltirgan holda **rad javobi berilgan**;

- **2 200 tasi** "Yerelektron.uz" dasturiga o'tkazilgan va **716 tasi** hokim yordamchilari tomonidan takroran yoki xato yuborilgan.

14-grafik

Hokim yordamchilar tomonidan berilgan buyurtmanomalar to'g'risida



3.2 Baholash va riyeltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish

1. O'zbekiston Respublikasining **"Riyeltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni** loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur qonun loyihasi Oliy Majlis deputatlari tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va **Senatga** yuborildi.

2. O'zbekiston Respublikasining **"Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni** loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda **Vazirlar Mahkamasiga** kiritildi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Baholovchi va riyeltorlar malaka sertifikatini, baholovchi toifa guvohnomasini hamda sud boshqaruvchisi malaka attestatini berish tartiblarini tasdiqlash haqida"** 2025-yil 30-dekabrda **838-son** qarori qabul qilindi.

4. O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartiga qo'shimcha ravishda **"Transport vositalari qiymatini baholash"** (15-son MBS) **yangi milliy baholash standarti** ishlab chiqildi va Adliya vazirligidan (ro'yxat raqami 3487-2-son) **davlat ro'yxatidan o'tkazildi**.

Baholash sohasidagi jamoat birlashmalari, soha mutaxassislari bilan hamkorlikda **"Madaniy boyliklar qiymatini baholash"** (16-son MBS) **"Startaplar qiymatini baholash"** (17-son MBS) yangi milliy baholash standarti ishlab chiqildi.

5. O'zbekiston Respublikasi Riyeltorlik xizmatlarining milliy standarti (4-son RXMS) **"Ko'chmas mulk obyektlarini ishonchli boshqarish"** **standarti ishlab chiqildi** va Adliya vazirligidan (ro'yxat raqami 3701-son) **davlat ro'yxatidan o'tkazildi**.

6. Yagona reyestrda baholovchi tashkilotlar tomonidan rasmiylashtirilgan ekspertiza xulosalari bo'yicha **1 041 ta** ma'lumotlar qabul qilindi hamda Davlat aktivlari agentligining rasmiy www.davaktiv.uz veb saytida "Ochiq ma'lumotlar" bo'limiga joylashtirildi.

7. Davlat aktivlari agentligining www.davbaho.uz axborot tizimida baholovchi tashkilotlar tomonidan baholash faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar shakli elektron raqamli imzo (*E-Imzo*) orqali taqdim etilishi yo'lga qo'yildi va **216 ta** baholovchi tashkilotlar tomonidan tegishli baholash faoliyati to'g'risidagi (*elektron*) ma'lumotlar shakli asosida 2024-yil uchun baholash sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (*shartnomalar soni va xizmatlar summasi 130,0 mlrd so'm*), baholangan mulk turiga qarab ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, baholash hisobotlari va ekspert xulosalari hamda faoliyat yurituvchi baholovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar qabul qilindi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan **"Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi"**, **"O'zbekiston baholovchilar jamiyati"** (www.oouz.uz) hamda **"O'zbekiston baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati"** (www.obemj.uz) tomonidan baholovchi tashkilotlarning reytingi aniqlanib, rasmiy saytda e'lon berildi.

3. Joriy yil **42 marotaba** baholash obyektlari bahosi bo'yicha materiallarni bahsli vaziyatlarda sud organlari so'rovlariga ko'ra ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Ekspert komissiyasining ishi tashkil etildi va **42 ta** ekspert xulosalari tayyorlanib sud organlariga yuborildi. Bunda, **261,7 mlrd so'mlik** baholash qiymatiga ega bo'lgan obyektlar bo'yicha hujjatlar ko'rib chiqilib, xulosalar berildi.


4. Davlat aktivlari agentligining Baholovchilarga toifa berish yoki toifa berishni rad etish bo'yicha Baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmalari bilan birgalikda komissiya yig'ilishi qaroriga asosan 2024-yilda **22 ta** talabgordan **7 ta** (3 ta oliy, 3 ta birinchi, 1 ta ikkinchi) talabgorga toifa guvohnomalari berildi.

5. Baholash sohasida qonunchilik talablarini buzish holatlari aniqlanganligi sababli **4 ta** baholovchiga nisbatan baholovchining malaka sertifikatlarini tugatish to'g'risida sudlarga da'vo arizalari kiritildi shundan **1 ta** baholovchining malaka sertifikati sud qaroriga asosan tugatildi.

6. 2025-yil boshidan **198 ta** baholovchilarga va **222 ta** riyeltorlarga malaka sertifikatlari **berilgan bo'lib**, bugungi kunga respublikada jami **1 164 ta** baholovchida va **895 ta** riyeltorda malaka sertifikatlari **amal qiladi**.


15-grafik

Baholovchi va riyeltorlar yo'nalishi bo'yicha malaka sertifikati olgan jismoniy shaxslar




16-grafik

Malaka sertifikatiga ega bo'lgan baholash va riyeltorlar




Hududlar kesimida respublikadagi **1 164 ta** malaka sertifikatiga ega baholovchilar jami soniga nisbatan Toshkent shahrida **27 foiz** (**316 ta**) bo'lsa, Navoiy, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarda bu ko'rsatkich **5 foizdan** kam.

Hududlar miqyosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan baholovchilar to'g'risida



Bugungi kunda respublikada **895 ta** malaka sertifikatiga ega riyeltorlar faoliyat olib bormoqda. Hududlar kesimida jami soniga nisbatan Toshkent shahrida **56 foiz (501 ta)**, Samarqand viloyati **14 foiz (127 ta)**, Toshkent viloyati **7 foiz (63 ta)** va Buxoro viloyati **4 foiz (32 ta)** bo'lsa, qolgan hududlarda bu ko'rsatkich **5 foizdan** kam.

Hududlar miqyosida malaka sertifikatiga ega bo'lgan riyeltorlar to'g'risida



O'zbekiston Respublikasida Baholash faoliyatiga oid asosiy ma'lumotlar


BAHOLASH XIZMATLARI TURLARI



BAHOLASH FAOLIYATI SOHASIDAGI PROFESSIONAL JAMOAT BIRLASHMALARI

- Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi **117** ta tashkilot a'zo
- O'zbekiston baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati **68** ta tashkilot a'zo
- O'zbekiston Baholovchilar jamiyati **56** ta tashkilot a'zo
- O'zbekiston Baholovchilar uyushmasi **51** ta tashkilot a'zo

Baholovchi tashkilotlar va baholovchilar soni



BAHOLASH SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH

Baholovchilarga "malaka sertifikat" berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq avtomatlashtirildi (my.gov.uz) hamda 2025 yil davomida 476 ta talabgordan arizalar kelib tushdi va shundan QR-kod bilan rasmiylashtirilgan 198 ta sertifikatlar berildi.

BAHOLASH FAOLIYATINING YAGONA AXBOROT PLATFORMASIDA:

Baholash xizmatlarini ko'rsatish sohasini tahlil qilish, baholovchi tashkilotlar va baholovchilar reyestrini yuritish imkonini beruvchi yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi;

Baholovchi tashkilotlarning reyting va renkingi joriy etildi;

"Ekspertiza xulosalarining yagona reyestri" yaratilib, 1041 ta ma'lumotlar qabul qilindi.

Yagona milliy baholash standartiga qo'shimcha ravishda "Transport vositalari qiymatini baholash" (15-son) baholash standarti (3487-2-son) davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

BAHOLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



BAJARILGAN BAHOLASH XIZMATLARI ISH HAJMI

2024y.	127,0 mlrd.so'm
2023y.	118,0 mlrd.so'm
2022y.	103,9 mlrd.so'm
2021y.	92,6 mlrd.so'm

O'zbekiston Respublikasida Rieltorlik faoliyatiga oid asosiy ma'lumotlar

RIELTORLIK XIZMATLARI TURLARI



RIELTORLIK FAOLIYATI SOHASIDAGI PROFESSIONAL JAMOAT BIRLASHMALARI


Rieltorlik tashkilotlari uyushmasi



O'zbekiston Rieltorlar gildiyasi



Rieltorlik tashkilotlari va rieltorlar soni



RIELTORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

- 01 Rieltorlik faoliyatini tartibga soluvchi yagona umumlashtirilgan normativ hujjat – "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish va Rieltorlik xizmatlarining milliy standartlarini takomillashtirish
- 02 Sohada o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida jamoat birlashmalarini mavqeni oshirish
- 03 Rieltorlik tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalariga rioya etish yuzasidan vakolatli organ bilan birgalikda tegishli ishlarini amalga oshirish
- 04 Ko'chmas mulk bozorini raqamli transformatsiya qilish, yashirin aylanmani qisqartirish, rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish imkonini beruvchi xususiy Milliy multilisting tizimlarini yaratish va amaliyotga tadbiiq etishda ko'maklashish

RIELTORLIK SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH

Rieltorlarga "malaka sertifikat" berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq avtomatlashtirildi (my.gov.uz) hamda 31.12.2025 yilda 387 ta talabgordan arizalar kelib tushdi va shundan QR-kod bilan rasmiylashtirilgan 222 ta sertifikatlar berildi.

RIELTORLIK XIZMATLARINING MILLIY STANDARTI

Rieltorlik xizmatlarining milliy standarti (4-son PXMC) "Ko'chmas mulk obyektlarini ishonchli boshqarish" standarti ishlab chiqildi va (3701-sonli) davlat ro'yxatidan o'tqazildi.

KO'RSATILGAN RIELTORLIK XIZMATLARI HAJMI



3.3. To'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini muvofiqlashtirish

1. 2026-yil 1-yanvar holatiga jami **12 683 ta** (5 145 tasi 2024-yildan o'tgan, 7 538 tasi joriy yilda bankrot deb topilgan) bankrot korxonalarda (mulki mavjud – **458 ta**, shundan davlat ishtirokidagi korxonalar – **29 ta**) tugatish ishlari olib borilib, ularning **6 983 ta**sida tugatish ishlari yakunlangan (mulki mavjud – **138 ta**, shundan davlat ishtirokidagi korxonalar – **4 ta**) qolgan **5 700 ta**sida (mulki mavjud – **320 ta**, shundan davlat ishtirokidagi korxonalar – **25 ta**) tugatish ishlari davom etmoqda.

Mulki mavjud tugatilayotgan **320 ta** korxonadan **91 ta**sida mol-mulkleri “E-auksion” elektron-onlayn savdosiga chiqarilgan, **77 ta**sida xatlov, **57 ta**sida baholash, **25 ta**sida uchinchi shaxslardan mulkini qaytarish bo'yicha sud jarayonlari olib borilmoqda hamda **70 ta** korxona mol-mulklerini sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga kreditor qarzlarni to'lash yoki savdolarda sotilmagan mulklarni kreditorlarga qarzi hisobiga berish ishlarini yakunlash orqali ularni tugatish choralari ko'rilmqda.

Iqtisodiy sud qarorlariga asosan **40 ta** korxonaga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlikning **sud sanatsiyasi** hamda **2 ta** korxonaga nisbatan **tashqi boshqaruv** tartib-taomillari joriy etilgan.

2. **352 nafar** sud boshqaruvchilari talabgorlari imtihondan o'tkazilib, ularning **188 nafariga** QR-kod qo'yilgan sud boshqaruvchisi attestati berildi va sud boshqaruvchilarning umumiy soni **452 tani** tashkil etadi.



Davlat aktivlari agentligining tegishli qarorlari bilan **47 nafar** sud boshqaruvchilari **attestatining amal qilishi bekor qilingan** va **4 nafari** attestatining amal qilishi **to'xtatilgan** hamda **57 nafariga** ular tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish haqida ko'rsatma va ogohlantirishlar berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-dekabrdagi 838-sonli qaroriga muvofiq, **sud boshqaruvchilariga attestat berish xizmati sohadagi jamoat birlashmasi** (O'zbekiston sud boshqaruvchilari assotsiatsiyasi) tomonidan amalga oshirish tartibi belgilandi.

3. Tadbirkorlik subyektlari uchun xo'jalik jamiyatining to'lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) to'g'risida ma'lumotlarni **“my.gov.uz”** orqali olish imkoniyati yaratilgan, 2025-yilda ushbu xizmatdan **56 ming ta**dan ortiq fuqarolar foydalangan.

Sud boshqaruvchilari tomonidan o'z kabineti orqali “To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”gi Qonunda e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlarni Davlat aktivlari agentligining **vab-saytida e'lon** qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yilib, 2025-yilda sud boshqaruvchilari tomonidan **14 ming ta**dan ortiq e'lonlar vab-saytda joylashtirilgan.

To'lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish sohasida



3.4. Normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi masalalari

Hisobot davrida **51 ta** (**2 ta** Qonun hujjatlari, **7 ta** Prezident hujjati, **32 ta** Vazirlar Mahkamasi hujjati, **10 ta** idoraviy normativ-huquqiy hujjat) normativ-huquqiy hujjatlar loyiha (keyingi o'rinlarda – Loyiha)lari ishlab chiqilgan.

O'z navbatida, hisobot davrida **32 ta** (**1 ta** Qonun, **2 ta** Prezident hujjati, **20 ta** Vazirlar Mahkamasi hujjati, **9 ta** idoraviy normativ-huquqiy hujjat) normativ-huquqiy hujjat **qabul qilingan**.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2025-yil 23-yanvardagi O'RQ-1021-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son Farmoni qabul qilingan.

Shuningdek, hisobot davrida vazirlik va idoralar tomonidan kiritilgan **734 ta** (**46 ta** Qonun, **218 ta** Prezident hujjatlari, **448 ta** Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, **22 ta** idoraviy normativ-huquqiy hujjat) loyihalar Davlat aktivlari agentligi tomonidan o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilib, **Davlat aktivlari agentligining tegishli taklif va e'tirozlari tayyorlangan holda mas'ul vazirlik va idoralarga taqdim etilgan**.

Joriy yilning 1-martidan buyon loyihalarni tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha **205 ta soddalashtirilgan va 2 ta kengaytirilgan** hisobotlar ishlab chiqilib, normativ huquqiy hujjatlar tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazilgan.

Davlat aktivlari agentligi faoliyatiga oid Vazirlar Mahkamasining **13 ta** qaroridan **10 tasi** Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga joylashtirish uchun "Davlat tili haqida"gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda jalb qilingan tarjimon va mas'ul tarkibiy bo'linmalar birgalikda **norasmiy davlat tiliga tarjima qilindi** hamda qolgan **3 tasi** o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilib, tegishli takliflar **Adliya vazirligi taqdim etilgan**.

Ma'lumot uchun, tarjima qilingan **10 ta** Hukumat qarorlari va o'z kuchini yo'qotgan deb topish nuqtayi nazaridan kelib chiqib, **3 ta** Hukumat qarori bo'yicha tayyorlangan takliflar **2025-yil 5-martda Adliya vazirligiga taqdim etildi**.

Bundan tashqari, Davlat aktivlari agentligi tomonidan 2024-yil noyabr-dekabr va 2025-yil yanvar oylari davomida **105 ta** (**4 ta** Qonun, **35 ta** Prezident hujjati, **62 ta** Vazirlar Mahkamasi hujjati, **4 ta** idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi) holatda loyihalarga belgilangan muddatlardan kechikib viza qo'yilganlik holatlari mas'ul tarkibiy bo'linmalar ishtirokida tahlil qilinib, **Adliya vazirligiga** hamda Davlat aktivlari agentligi to'g'risidagi nizomda aks ettirish va ahamiyatini yo'qotgan funksiyalarni chiqarib tashlash bo'yicha takliflar va tegishli qaror loyihasi ishlab chiqilib, **Adliya vazirligi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan**.




ISHLAB CHIQLILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHALARI



QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR



Vazirlik va idoralardan kelib tushgan **734** ta normativ-huquqiy hujjat loyihasiga Davlat aktivlari agentligi takliflari tayyorlandi



3.5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish

1. Davlat aktivlari agentligi tomonidan an'anaviy ko'rsatiladigan jami **18 ta** xizmat to'liq raqamlashtirilib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari (my.gov.uz) portalini va Davlat xizmatlari markazlari orqali xizmatlarni ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

2. Yuridik va jismoniy shaxslarga qulaylik yaratish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining **"Sohalar"** bo'limida alohida **"Davlat aktivlari"** sohasi ochildi va ko'rsatilayotgan barcha xizmat kiritildi.

3. Davlat aktivlari agentligining rasmiy **"Davaktiv"** mobil ilovasi iOS va Android tizimlari uchun ishlab chiqilib, **"App Store"** va **"Google Play"** platformalariga joylashtirildi.

4. Axborot tizimlarning asosiy nusxalari **"Elektron hukumat"** tizimining Data-markaziga o'tkazildi.

5. Davlat aktivlari agentligi tomonidan **"Yerxususlashtirish"** avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim orqali fuqarolar va tashkilotlar **o'z noqishloq yer uchastkalarini masofadan turib xususlashtirib olish uchun** my.gov.uz yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali arizani topshirishi hamda barcha hujjatlarni **QR kod** bilan onlayn olishi mumkin. Jarayonlar to'liq raqamlashtirildi va inson omili cheklandi.

6. **"E-auksion"** elektron savdo platformasi orqali sotilgan mulklarni shartnomalarini rasmiylashtirish jarayoni **to'liq raqamlashtirilib, elektron raqamli imzo** bilan shartnomalarni tasdiqlash imkoniyat yaratilgan.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarori asosida **"Elektron hukumat"** tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi (Platforma) orqali Davlat aktivlari agentligi tomonidan Platformaga **13 turdagi** ma'lumotlar taqdim etilgan

Bugungi kunda, **34 ta** vazirlik va idoralarning axborot tizimlari Davlat aktivlari agentligining axborot tizimlari o'rtasida o'zaro elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

8. **"ICT WEEK Uzbekistan – 2025@"** forumida Davlat aktivlari agentligi **"Davlat mulkini boshqarishda raqamlashtirish orqali shaffoflik va samaradorlikni ta'minlagan tashkilot"** nominatsiyasida **g'olib deb topildi**.

2025-yil 1 yarim yillik yakuni bo'yicha Raqamli transformatsiya holatini **reyting** baholash natijalariga ko'ra, Davlat aktivlari agentligi **95,45 foiz** natija bilan **davlat organlari o'rtasida 2 o'rinni egalladi**.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

1. Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining belgilangan shtat birliklari doirasida Axborot texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik boshqarmasi tarkibida **4 ta** boshqaruv **shtat** birligidan iborat **Sun'iy intellektni joriy etish va rivojlantirish bo'limi tashkil etildi** va malakali kadrlar bilan to'ldirildi.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlari agentligining **2026-yilda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish** bo‘yicha **chora-tadbirlar rejasini**” Raqamli texnologiyalari vazirligi bilan **kelishilgan** holda 2025-yil 12-dekabrda **tasdiqlandi**.

Mazkur chora-tadbir rejasida **8 ta** sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan axborot tizimlar ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha loyihalar kiritildi.

3. Davlat aktivlari agentligi tizimidagi **510** nafardan ortiq **xodimlari (“aileaders.uz”) 5 million sun’iy intellekt yetakchilari**” dasturi doirasida Davlat xizmatchilari modulida o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirdilar va barchalari sertifikatlariga ega bo‘lishdi.

4. Davlat aktivlari agentligi va hududiy boshqarmalarning raqamlashtirishga mas’ul **24 nafar** xodimlari Raqamli texnologiyalari vazirligining “U-Study” o‘quv markazining davlat organ xodimlari uchun **Sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha** malaka oshirish dasturida qatnashib, barcha mas’ullar tegishli sertifikatlariga ega bo‘lishdi.

РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ҲОЛАТИ РЕЙТИНГИ

2 ўрин ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ
ОРГАНЛАРИ ОРАСИДА **95,5** %
натижа

Рейтинг баҳолаш ишлари
5 та йўналишда амалга оширилган

- ▶ Очиқлик ва электрон иштирок индексида **90,73** % ни
- ▶ Ахборот хавфсизлиги индексида **95,10** % ни
- ▶ Фаолиятни рақамлаштирилганлик индексида **98,96** % ни
- ▶ Ташкилий масалаларда **97,14** % ни
- ▶ Электрон давлат хизматлари индексида **95,60** % ни


АГЕНТЛИКГА ЮКЛАТИЛГАН
ФУНКЦИЯЛАРНИНГ
РАҚАМЛАШГАНЛИК СОНИ

56 та

18 та РАҚАМЛАШГАН
ХИЗМАТЛАР СОНИ



31 та ВАЗИРЛИК ВА ИДОРЛАР
БИЛАН ҚИЛИНГАН
ИНТЕГРАЦИЯЛАР СОНИ



Давлат активлари учун
тўловларни **CLICK, PAYME, UZUM
BANK** каби тўлов платформалари
орқали амалга оширилади



Давлат активлари учун
бериладиган ордерлар
рақамлаштирилди ва
QR-код билан тақдим этилади



Расмий веб сайт Ҳукумат
порталига ўтказилган
(gov.uz/oz/davaktiv)



Серверлар «Электрон
ҳукумат»нинг Дата марказига
жойлаштирилган



“DAVAKTIV” МОБИЛ ИЛОВАСИ

- АГЕНТЛИКГА ОИД МАЪЛУМОТЛАРНИ ОММАГА
ОЧИҚ ВА ҚУЛАЙ ШАКЛДА ТАҚДИМ ЭТИШ
- РАҚАМЛАШТИРИЛГАН ХИЗМАТЛАРДАН ВА
ИНТЕРАКТИВ ИМКОНИАТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ
СОДДАЛАШТИРИШ
- ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА АГЕНТЛИК ЎРТАСИДА
САМАРАЛИ МУЛОҚОТНИ ТАЪМИНЛАШ

11 та ИНТЕГРАЦИЯЛАР
СОНИ

8 та МОДУЛЛАР
СОНИ

8 та ХИЗМАТЛАР
СОНИ

3 та КАБИНЕТЛАР
СОНИ

“YERXUSUSIYLASHTIRISH” ААТ

Давлат активлари агентлиги томонидан
“Yerxususiyashtirish” автоматлаштирилган ахборот
ишлаб чиқилди ва амалиётга жорий қилинди.
Жисмоний ва юридик шахслар ўзларига тегишли
бўлган қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ер
участкаларини масофадан туриб хусусийлаштириш,
Ягона интерактив давлат хизматлари портали
(my.gov.uz) ёки исталган Давлат хизматлари
марказлари орқали ариза бериш ва
хусусийлаштирилганлиги тўғрисида ордер
ва кўчирмани (**QR код**) билан тасдиқланган ҳолда олиш
имконияти яратилди. Тизимда инвойслар ягона
биллинг ҳисоб-китоб тизими орқали автомат
шаклланади. Ушбу жараёнларни барчаси **тўлиқ**
рақамлаштирилган ва инсон омили чекланган

КЕЛГУСИДА РАҚАМЛАШТИРИШ БЎЙИЧА
ҚИЛИНАДИГАН ИШЛАР

- Яратилган ахборот тизимларини такомиллаштириш
ҳамда янги ахборот тизимларни ишлаб чиқишда
сунъий интеллект технологияларидан фойдаланиш
- Давлат акциялар пакетларини сотиб олган
харидорларга акцияларни ўтказиб бериш бўйича
депо топшириқномаларини электрон рақамли имзо
орқали (QR-код) қўйилган ҳолда тақдим этиш
- Бўш турган давлат кўчмас мулк объектларини
аниқлаш ва уларни масофадан туриб киритиш,
ҳисобини юритиш ва онлайн мониторингини олиб
бориш учун тизим ишлаб чиқиш
- Ягона интерактив давлат хизматлари портали
(my.gov.uz) да 2 та янги хизматни жорий қилиш

3.6 Xalqaro hamkorlik masalalari

1. Xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilgan protokol tadbirlar

2025-yil davomida Davlat aktivlari agentligi tomonidan xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha jami **75 ta uchrashuv** tashkil etildi. Jumladan, agentlik rahbariyati ishtirokida **52 ta rasmiy uchrashuv**, tegishli loyihalar doirasida **23 ta ishchi tartibdagi uchrashuv** o'tkazildi, shuningdek **15 ta xalqaro seminar va forumlarda** ishtirok etildi.

2. Investitsiya forumlari va xalqaro taqdimotlar

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida **“Xususiylashtirish: rejalar, yondashuvlar va yutuqlar”** mavzusida panel sessiya tashkil etildi. Xorijiy ishtirokchilarga **400 ga yaqin tarqatma taqdimot materiallari** tayyorlandi.

Davlat aktivlari agentligi va **“CEO Clubs Network Worldwide”** o'rtasida O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonlariga xorijiy investorlarni faol jalb qilishga qaratilgan **anglashuv memorandumi** imzolandi.

Parlamentlararo ittifoqning **150 yubiley assambleyasida** Davlat aktivlari agentligi ishtiroki ta'minlandi.

8 ta xalqaro darajadagi seminar, davra suhbat, tadbir hamda konferensiyalarda Davlat aktivlari agentligi vakillarining faol ishtiroki ta'minlandi.

3. Strategik hujjatlar ishlab chiqish va grant mablag'larini jalb etish

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda **Korporativ boshqaruv kodeksining yangi tahriri** ishlab chiqildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda **2026–2030-yillarga mo'ljallangan Davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish strategiyasi** loyihasi tayyorlandi.

Davlat aktivlari agentligi tomonidan (davlat ishtirokidagi korxonalar bilan birgalikda) **20 mln AQSH dollari** miqdorida grant mablag'larini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Natijada, bir necha yillarga mo'ljallangan **38,2 mln AQSH dollari** miqdoridagi xorijiy grantlar asosidagi loyihalar shakllantirilib, **11,9 mln AQSH dollari** mablag' o'zlashtirildi.

4. Yuqori va oliy darajadagi tashriflar

Yuqori va oliy darajadagi tashriflar doirasida Davlat aktivlari agentligi vakillari tomonidan **Malayziya, Shveysariya, Koreya Respublikasi, BAA, AQSH, Xitoy, Turkiya va Buyuk Britaniya** davlatlarida O'zbekistondagi xususiylashtirish imkoniyatlari mavzusida xorijiy biznes doiralar uchun taqdimotlar (**Road-Show**) o'tkazildi.

Oliy va yuqori darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlar ijrosi bo'yicha **MDH va Yaqin Sharq davlatlarini** qamrab olgan ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Fransiya rivojlanish agentligining tahliliy va taqdimot materiallari yagona bazaga jamlandi.

Pokiston, Malayziya, Polsha, Qirg'iziston va Turkiya bilan o'tkaziladigan Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari kun tartiblari uchun Davlat aktivlari agentligi tomonidan taklif va axborot materiallari tayyorlanib, tegishli instansiyalarga taqdim etildi.

5. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik

Jahon bankining IBL loyihasi doirasida:

xususiylashtirish jarayonini qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tanlov asosida "Dentons" kompaniyasi xalqaro yuridik konsultant sifatida jalb etildi;

davlat korxonalarini xususiylashtirish bo'yicha konsultant kompaniyani jalb qilish maqsadida xalqaro tanlov o'tkazilib, hozirda tanlov yuzasidan yakuniy ishlar olib borilmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari bilan birgalikda kuzatuv kengashlari faoliyatini ham qamrab olgan korporativ boshqaruvni baholash metodologiyasi (scorecard) yanada takomillashtirilib grant asosida **4 nafar** mustaqil ekspert jalb etilgan holda **46 ta** yirik korxonada ushbu metodologiya bo'yicha baholash ishlari olib borilmoqda.

6. Xalqaro o'quvlar va stajirovkalar

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlari agentligi hamda Turkiya Respublikasi Xususiylashtirish Administratsiyasi o'rtasidagi Anglashuv memorandumini asosida **xodimlar almashinuvi dasturi** amalga oshirildi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) va Koreya milliy inson resurslarini rivojlantirish instituti (NHI) bilan hamkorlikda davlat aktivlarini boshqarish va institutsional islohotlar mavzusida o'quv-stajirovka dasturi tashkil etildi;

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) ishtirokida korporativ boshqaruvni takomillashtirish va davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish bo'yicha master-klasslar o'tkazildi;

Germaniya tajribasi asosida detsentralizatsiya, munitsipal darajada aktivlarni boshqarish masalalariga bag'ishlangan onlayn va oflayn seminarlar tashkil etildi;

6. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi yuzasidan Ishchi guruhining 10-11- yig'ilishlarida ishtirok etildi.

▶▶▶ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК ВА ЖАҲОН САВДО ТАШКИЛОТИ MASALALARI

Халқаро протокол тадбирлар

75

Учрашувлар

Хорижий
тажриба

8

15

Форум ва
семинарКелишув ва
меморандум

2



World bank

Лойиҳа қиймати:
4,0 млн. доллар

Лойиҳа сони: 4 та



Лойиҳа қиймати:
0,7 млн. доллар

Лойиҳа сони: 3 та



EBRD

Лойиҳа қиймати:
0,3 млн. доллар

Лойиҳа сони: 1 та



Лойиҳа қиймати:
0,5 млн. доллар

Лойиҳа сони: 2 та

Хорижий хизмат сафарлари

Жалб қилинган грант

38,2 млн АҚШ доллари




Давлат активлари агентлиги

давлат иштирокидаги корхоналар

Ходимлар алмашинуви дастури



DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI
UzSAMA
 STATE ASSETS MANAGEMENT AGENCY



ÖZELLEŞTİRME
İDARESİ
BAŞKANLIĞI



АҚШ

АҚШ-Ўзбекистон бизнес форуми



ШВЕЙЦАРИЯ

ЖСТга қўшилиш йиғилиши



ХИТОЙ ХАЛҚ РЕСПУБЛИКАСИ

Уқув, амалий малака ошириш



ТУРКИЯ

Уқув, амалий малака ошириш



БАА

БАА-Ўзбекистон бизнес форуми



БУЮК БРИТАНИЯ

Бизнес форум



АВСТРАЛИЯ

ИХТТ (OECD) конференция



ЖАНУБИЙ КОРЕЯ

Уқув, амалий малака ошириш



МАЛАЙЗИЯ

Бизнес форум



РОССИЯ

Уқув, амалий малака ошириш

Фаолиятдаги халқаро консультантлар



3.7. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi PF–178-son Farmoniga asosan Davlat aktivlari agentligi hamda uning tizim tashkilotlariga jami 532 ta shtat birliklari belgilangan bo'lib, shu jumladan markaziy apparat – 139 (shundan 94 tasi budjet), hududiy boshqarmalarda – 248 ta (shundan 217tasi budjet) va idoraviy mansub tashkilotlarda 137 tani tashkil etadi.

Davlat aktivlari agentligi markaziy apparati tuzilmasida 2 ta departament, 14 ta boshqarma, 11 ta bo'lim mavjud. Shuningdek, 139 nafar boshqaruv xodimlaridan tashqari 18 ta shtat texnik xodimlar va 12 ta shtat xizmat ko'rsatuvchi xodimlar mavjud.

Tanlov asosida ishga qabul qilingan xodimlar soni 54 tani tashkil etadi, shundan markaziy apparat 7 ta.

Inson resurslarini boshqarishga oid ma'lumot va hujjatlar "hrm.argos.uz" elektron platformasi orqali amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

"hrm.argos.uz" elektron tizimi edo.ijro.uz platformasi bilan integratsiya qilingan.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat boshqaruv akademiyasi hamda boshqa vakolatli idoralar tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilari uchun tashkil etilayotgan turli malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida jami 525 nafar, shundan Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining 135 nafar, hududiy boshqarmalarning 248 nafar va idoraviy mansub tashkilotlarning 143 nafar rahbar va xodimlari ishtirok etdi.

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish



3.8. Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da'vo ishlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida jami **120 ta**, shundan iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarida – **54 ta**, ma'muriy ishlar bo'yicha sudlarda – **37 ta**, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda – **30 ta**, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda – **3 tasida** qatnashildi.

Hisobot davrida **103 ta** normativ-huquqiy hujjat loyihalari ekspertizadan o'tkazildi (**5 ta** O'zbekiston Respublikasi Qonuni, **18 ta** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlar, **57 ta** Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hamda **23 ta** vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari).

Adliya vazirligining "Huquqiy targ'ibotni baholash tizimi" elektron portali (<https://htb.huquqiyportal.uz>) ga Davlat aktivlari agentligida o'tkazilgan huquqiy targ'ibot tadbirlari haqidagi **120 ga yaqin** materiallar yuklandi.

2025-yilning II yarim yillik faoliyati yakuniga ko'ra, vazirlik va idoralar kesimida Davlat aktivlari agentligida **11 o'rin** bilan baholandi.


Davlat aktivlari agentligining **mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi 630 ta** hujjat qonunchilikka muvofiqligi tekshirildi (**263 ta** shaxsiy tarkibga oid, **200 ta** xizmat safariga oid va **167 ta** mehnat ta'tiliga oid).

7 ta xodim Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida **malakalari oshirildi** shuningdek, **4 ta** xodim Adliya vazirligidan **attestatsiyadan o'tdi**.

Vazirlik va idoralar tomonidan **544 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan taklif va e'tirozlar bildirilgan, **20 ta** normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiya qarshi ekspertizadan o'tkazildi.

Davlat mulkini sotib olgan hamda majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan xaridorlarga **64 ta** ogohlantirish xatlari hamda **1 ta** shartnomani bekor qilish yuzasidan taklif xati yuborilishi ta'minlangan.

1 160 ta jismoniy va yuridik shaxslarning hamda **9 747 ta** boshqa yuridik tusdagi hujjatlar ko'rib chiqildi.



3.9. Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar

2025-yil mobaynida Axborot xizmati tomonidan OAV larda jami **688 ta** (**31 ta** TV va radio, **64 ta** gazeta va jurnallar va **593 ta** ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) chiqishlar tashkil qilindi.

OAVda yoritilgan materiallar




Rasmiy e'lonlar



586 ta (**92 ta** foto va video materiallar, **288 ta** matn shakldagi ma'lumotlar, **151 ta** infografikalar, **34 ta** xususiylashtirish va sotuv jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar va **21 ta** boshqa turdagi) ma'lumot (yangilik) Davlat aktivlari agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida joylashtirildi.

Respublika bo'ylab Davlat aktivlari agentligi faoliyati yuzasidan jami **52 ta** "Road-show" taqdimotlari tashkil qilindi, **2 000 dan** ortiq tadbirkor va OAV vakillari ishtiroki ta'minlandi, **58 ta** davlat va nodavlat OAV vakillari tomonidan yoritildi.

"Roadshow" taqdimotlari



2025-yil boshidan jami **13 ta** xorijiy OAVlarda Davlat aktivlari agentligiga tegishli bo'lgan ma'lumotlar joylandi.

Respublika bo'yicha o'tkazilgan press turlar va tayyorlangan tarqatma materiallari



Joriy yil boshidan respublika bo'ylab o'tkazilgan tadbirlarda jami **39 ta** press tur tashkil qilinib, **550 dan** ortiq tarqatma materiallari chop etilib, tarqatildi.


Joriy yilda AOKA binosida Davlat aktivlari agentligining tashkilotlari tomonidan soha faoliyati natijalari bo'yicha **brifing o'tkazildi**.

Davlat aktivlari agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining ilk yig'ilishi o'tkazilib, ochiqlik va shaffoflik yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqildi.

3.6. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident hujjatlarida

2025-yilning hisobot davrida jami **1336 ta** topshiriqlar nazoratga olingan. Ushbu topshiriqlardan **882 ta**sida **asosiy ijrochi** sifatida belgilanib (**623 ta** Farmon, **172 ta** qaror, **84 ta** bayon va **3 ta** Qonun) nazoratdagi **barcha topshiriqlar** ijrosi sifatli hamda o'z muddatlarida ta'minlangan.




2. Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlarida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi tomonidan hisobot davrida jami **88 ta** topshiriqlar kelib tushgan bo'lib, ulardan **44 ta**sida **asosiy ijrochi** sifatida belgilanib nazoratdagi **barcha topshiriqlar** ijrosi sifatli hamda o'z muddatlarida ta'minlangan.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida

Hisobot davrida km.gov.uz orqali jami **439 ta** topshiriqlar nazoratga olingan. Ushbu topshiriqlardan **244 ta**sida **asosiy ijrochi** sifatida belgilanib (**20 ta** qaror, **81 ta** bayon va **143 ta** topshiriqlarida) nazoratdagi **barcha topshiriqlar** ijrosi sifatli hamda o'z muddatlarida ta'minlangan.



IV. “E-auksion” elektron savdo platformasi faoliyati

“E-auksion” elektron savdo platformasi orqali auksion va tanlov savdolarini o‘tkazish, uning inson omilisiz, shaffof tarzda o‘tkazilishi hisobiga yildan yilga ommalashib, undagi savdo turlari oshib bormoqda.

1. “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali **33 ta** yo‘nalish va **97 ta** kategoriyadagi jami **43,8 trln so‘m** boshlang‘ich narx bilan **123 122 ta** mol-mulklar va foydalanish huquqlari auksion va tanlov savdolariga chiqarilgan bo‘lib, boshlang‘ich narxi **14,1 trln so‘m** bo‘lgan **75 148 ta** lot **16,9 trln so‘mga** (*2,8 trln so‘m qimmatroq*) realizatsiya qilindi.

2. Sanoat zonalari hududidagi yer uchastkalarni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish:

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalari hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun **605 ta** (*2 069 gektar*) yer uchastkalari auksion savdosiga chiqarilib, shundan **359 ta** (*1 094 ga*) yer uchastkasi **308,5 mlrd so‘mga** (boshlang‘ich narxiga nisbatan **2,9 mlrd so‘mga** qimmatroq) sotildi.

Yoshlar va Kichik sanoat zonalari hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish bo‘yicha **639 ta** (*142,7 gektar*) (*Yoshlar sanoat zonasida 181 ta (24,7 ga)*, *Kichik sanoat zonasida 458 ta (118 ga)*) yer uchastkalari auksion savdosiga chiqarilib, shundan **494 tasi** (*148,4 ga*) **81,5 mlrd so‘mga** (*boshlang‘ich narxiga nisbatan 9,6 mlrd so‘mga qimmatroq*) sotilgan.

3. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini yuridik shaxslar uchun ijara huquqi asosida **6 294 ta** (*326 597 ga*) yer maydonlari **631,7 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda auksion/tanlov savdolariga chiqarilib, shundan boshlang‘ich narxi **445,8 mlrd so‘m** bo‘lgan **3 605 ta** (*195 507 ga*) yer maydonlari **601,1 mlrd so‘mga**;

Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha boshlang‘ich qiymati **205,9 mlrd so‘m 15 955 gektar** yer maydoniga ega **24 549 ta** yer uchastkalari auksion/tanlov savdolariga chiqarilgan va **10 338 ta** (*6 560 ga*) yer uchastkalari **126,2 mlrd so‘mga**;

Yoshlarga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun ijara huquqi asosida **2 174 ta** (*1 175,5 ga*) yer maydonlari **12,4 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda savdoga chiqarilib, shundan boshlang‘ich narxi **29,4 mlrd so‘m** bo‘lgan **2 585 ta** (*1 348 ga*) yer maydonlari **37,4 mlrd so‘mga** ijaraga berildi.

4. Davlat ko‘chmas mulki obyektlari va davlat ulushlari bo‘yicha **1 278 ta** obyekt **7,6 trln so‘m** boshlang‘ich narxda elektron savdolarga chiqarilib, boshlang‘ich narxi **4,1 trln so‘mlik 1 213 ta** obyekt (*yildan yilga o‘tuvchilari bilan birga*) **4,8 trln so‘mga** (*662 mlrd so‘m qimmatroqqa*) sotildi. **Shundan:**

– **1 201 ta** davlat obyektlari **5 953,3 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo‘lib, shundan boshlang‘ich narxi **3 527,3 mlrd so‘m** bo‘lgan **1 134 ta** davlat obyektlari **4 058,5 mlrd so‘mga** realizatsiya qilingan.

– **74 ta davlat ulushlari 1 650,6 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo‘lib, shundan boshlang‘ich narxi **582,8 mlrd so‘m** bo‘lgan **77 ta davlat ulushlari 688,4 mlrd so‘mga** realizatsiya qilingan.

– **3 ta alohida shartlar asosida sotiladigan davlat aktivlari 42,4 mlrd so‘m** boshlang‘ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo‘lib, shundan boshlang‘ich narxi **38,8 mlrd so‘m** bo‘lgan **2 ta davlat aktivlari 64 mlrd so‘mga** realizatsiya qilingan.

5. Yangi yo‘nalishlarni joriy etish sohasida

- amaldagi kategoriyalar nomlanishini **“Dehqon xo‘jaligi maqsadlari yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar”**ga hamda **“Qishloq xo‘jaligi maqsadlari yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar”**ga o‘zgartirish hamda yangi **“Qishloq xo‘jaligi yerlari”** hamda **“Dehqon xo‘jaligi yerlari”** nomli kategoriyalarni joriy etish bo‘yicha savdo platformasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

- **“Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun”** kategoriyasi, yaratilib elektron onlayn-auksion savdolari tashkil etildi;

- **“E-auksion”** elektron savdo platformasida **“Yer qa‘ri uchastkasidan foydalanish huquqi”** toifasida alohida **“Uglevodorod foydali qazilmasi”** yangi kategoriyasini yaratildi;

- buyurtmachilarning **“E-auksion”** elektron savdo platformasi orqali mol-mulklarini ijaraga berish huquqini auksion savdolariga chiqarish maqsadida savdo platformasida **“Buyurtmachilarning bo‘sh binolari”** va **“Buyurtmachilar mulkini ijaraga berish”** nomli yangi kategoriyalar joriy etildi;

- Vazirlar Mahkamasining **2025-yil 9-sentyabrdagi 574-son** qaroriga muvofiq **“Bank aktivlari”** kategoriyasi joriy etildi;

- **suv havzalari** hamda **daryo atrofidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini** auksion savdolariga chiqarish bo‘yicha ariza hamda balansda saqllovchi tomonidan tasdiqlangan ijara shartnomasi loyihasi asosida yuboriladigan buyurtmanomalarni **“E-auksion”** elektron savdo platformasiga chiqarilishi joriy qilindi.

6. “E-auksion” platformasini texnologik takomillashtirish sohasida

- operator bilan afillangan shaxslarni **“E-auksion”** elektron savdo platformasidagi savdolarida ishtirokini cheklash maqsadida **afillangan shaxslar** reyestriga kiritildi;

- auksion (tanlov)larni tashkil etishni yo‘lga qo‘yish doirasida **Davlat aktivlari agentligi, Soliq qo‘mitasi, Majburiy ijro byurosi va Ichki ishlar vazirligi** axborot tizimlari bilan integratsiyalar amalga oshirildi;

- qishloq xo‘jaligi yerlarini sotib olish soni bo‘yicha cheklovlar bekor qilindi;

- **Elektron hukumat markazi** bilan **“Elektron savdo natijasiga ko‘ra g‘oliblik bayonnomasini** Qurilish uy-joy kommunal vazirligiga taqdim etish yuzasidan” hamda **“Elektron savdolar natijasiga ko‘ra g‘oliblik bayonnomasini tegishli idora va tashkilotlarga taqdim etish bo‘yicha”** **texnologik yo‘riqnomalar** ishlab chiqilib tasdiqlandi;

- **“E-auksion”** savdo platformasida mol-mulk ma‘lumotlarini shakllantirishda zarur bo‘lgan – obyektning kadastr raqami bo‘yicha obyekt to‘g‘risidagi

ma'lumotlarini olish bo'yicha **Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi DM** bilan o'zaro **integratsiya** qilindi;

- **O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining "Masofaviyaudit.uz"** axborot tizimi hamda **"E-auksion"** elektron savdo platformasi axborot tizimlari o'rtasida o'zaro ma'lumotlar almashinuvi tashkil etish bo'yicha texnik hujjatlar ishlab chiqilib, **ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi**;

- Adliya vazirligining **Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi** va **"E-auksion"** elektron savdo platformasi o'zaro axborot almashish bo'yicha texnologik yo'riqnoma hujjati ishlab chiqildi va imzolandi;

- **Raqamli texnologiyalar vazirligi o'rtasida "E-auksion"** elektron savdo platformasi orqali ko'p kvartirali uy-joylarni qurish uchun sotilgan yer uchastkasining g'olibi to'g'risidagi ma'lumotlarni Qurilish va uy-joy kommunal vazirligiga taqdim etish yuzasidan texnologik yo'riqnoma tasdiqlandi va elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi;

- **"E-auksion"** elektron savdo platformasining mobil qurilmalar uchun (**Android va iOS**) ilovalarining yangi dizayndagi talqini ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

- **"E-auksion"** elektron savdo platformasining mobil ilovalarida jismoniy shaxslarga yanada qulaylik yaratish maqsadida, **ular tomonidan oferta shartnomasini imzolash usullariga qo'shimcha tarzda MyID - yuzni biometrik identifikatsiya qilish tizimi** orqali ommaviy ofertani tasdiqlash amaliyoti joriy qilindi;

- auksion natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan bayonnomalarning PDF shakli (*qo'shimcha tarzda – bayonnoma raqami, g'olibning JSHSHIR raqami, bayonnoma sanasi, lot raqami va mulk turi kabi ma'lumotlarni elektron shaklda*) taqdim etilishi yuzasidan **Jamiyat tomonidan "API" servislari yaratilib, foydalanish uchun "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi"** davlat muassasasiga taqdim etildi.

7. Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida.

Respublika bo'yicha maydoni **7 513,1 gektar** bo'lgan **4,8 trln so'm** boshlang'ich narxdagi **35 337 ta** yer uchastkalari **mulk va ijara huquqida** auksion savdolariga qo'yilgan.

23 419 ta (**3 524 ga**), **3,6 trln so'm** boshlang'ich narxdagi **mulk va ijara huquqidagi** yer uchastkalari **4,6 trln so'mga** yoki **1,0 trln so'm** qimmatga sotilgan **shundan**:

- **Mulk huquqida** 2025-yilda **10 529 ta** (**510,1 gektar**) yer uchastkalari **353,5 mlrd so'm** boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan **9 590 ta** (*yildan yilga o'tuvchilari bilan birga*) **409,1 gektar** yer uchastkalari **383 mlrd so'mga** realizatsiya qilingan;

- **Ijara huquqida** 2025-yilda **24 003 ta** (**6 868 gektar**) yer uchastkalari **4 trln so'm** boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan **13 002 ta** (*yildan yilga o'tuvchilari bilan birga*) **2 957 gektar** yer uchastkalari **2,9 trln so'mga** (**576 mlrd so'm** qimmatroqqa) realizatsiya qilingan;

- Ko'p qavatli uy-joy qurish uchun 2025-yilda **805 ta** (*135 gektar*) yer uchastkalari **413,6 mlrd so'm** boshlang'ich narx bilan auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan **827 ta** (*yildan yilga o'tuvchilari bilan birga*) **158 gektar** yer uchastkalari **1,2 trln so'mga** (*306 mlrd so'm qimmatroqqa*) realizatsiya qilingan.

"E-AUKSION" ELEKTRON SAVDO PLATFORMASI FAOLIYATI 2025-YIL

SAVDOGA CHIQARILGAN MULKLAR



■ Soni
123 122 ta

■ Boshlang'ich narxi
43 787 mlrd so'm

REALIZATSIYA QILINGAN

■ Soni **75 148 ta**



14 104,6 mlrd so'm

16 861,4 mlrd so'm

■ Boshlang'ich narxi

■ Sotilgan narxi

MULK TURLARI BO'YICHA AUKSION NATIJALARI

■ Boshlang'ich narxi

■ Sotilgan narxi



1 213 ta

Davlat aktivlari

4 148,9 mlrd so'm

4 810,9 mlrd so'm



6 413 ta

Davlat aktivlari ijarasi

122,4 mlrd so'm

203 mlrd so'm



23 459 ta

Yer uchastkalari

3 614 mlrd so'm

4 616,9 mlrd so'm



16 528 ta

Qishloq xo'jaligi yerlari

583,3 mlrd so'm

764,7 mlrd so'm



7 576 ta

Ijro hujjatlari bo'yicha mulklar

2 204,3 mlrd so'm

2 250 mlrd so'm




8 112 ta

Ko'chma savdo joylari

4 mlrd so'm

28 mlrd so'm

ISHTIROKCHILAR SONI



■ Davlat aktivlari **3 678 nafar**

■ Davlat aktivlari ijarasi **16 920 nafar**

■ Yer uchastkalari **63 974 ta**

■ Qishloq va dehqon xo'jaligi yerlari **26 168 nafar**

■ Ko'chma savdo joylari **21 288 nafar**

■ Ijro hujjatlari bo'yicha mulklar **55 256 nafar**

■ Boshqalar **36 209 nafar**



XULOSA

Davlat aktivlari agentligi tomonidan **2025-yilda** iqtisodiyotning xususiy sektor rivojlangan tarmoqlarida **davlat ishtirokini keskin kamaytirish, xususiy sektor faoliyat ko'rsatishi uchun qulay raqobat muhitini yaratish hamda xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish**, davlat ishtirokidagi korxonalarda **zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish** orqali ularni samarali boshqarishni tashkil etish, davlat mulki, shu jumladan bo'sh turgan **davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish** bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.